



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BAHONING SEGMENT BIRLIKLAR ORQALI AKS ETISHI

Isakova Zilolaxon Zokirovna
Qo'qon davlat universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Nutqning baholash xususiyatini fonetik jihatdan segment va supersegment birliklar qo'llanishi misolida ko'rib o'tsak, leksik sathda esa so'z, uning konteksdagi ma'nolari orqali baho ifodalanadi. Ushbu tezisda fonetik usul orqali ingliz va o'zbek tillarida baho ifodalanishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: baholash, ijobiy baholash, salbiy baholash, segment birliklar, supersegment birliklar, nutq tovushlari.

ОТРАЖЕНИЕ ЦЕННОСТИ ЧЕРЕЗ СЕГМЕНТНЫЕ ЕДИНИЦЫ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Исакова Зилолахон Закировна
Кокандский государственный университет, доцент (PhD)

Аннотация

Оценочный аспект речи может быть выражен на фонетическом уровне с помощью сегментных и суперсегментных единиц, тогда как на лексическом уровне оценка проявляется через значение слова в контексте. В данном тезисе рассматривается выражение оценки в английском и узбекском языках с использованием фонетических средств.

Ключевые слова: оценка, положительная оценка, отрицательная оценка, сегментные единицы, суперсегментные единицы, речевые звуки.

EXPRESSION OF EVALUATION THROUGH SEGMENTAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Isakova Zilolaxon Zokirovna
Kokand State University, Associate Professor (PhD)

Abstract

The evaluative aspect of speech can be expressed phonetically through the use of segmental and suprasegmental units, while at the lexical level it is reflected through the contextual meanings of words. This thesis explores how evaluation is conveyed phonetically in English and Uzbek.

Keywords: evaluation, positive evaluation, negative evaluation, segmental units, suprasegmental units, speech sounds.

Nutqimizda fonetik tizimning eng kichik, lekin ma'no anglatmaydigan birliklari nutq tovushlari hisoblanadi. Garchi ular alohida ishlatilib, yakka holda kelib, mustaqil ma'no ifodalay olmasa-da, nutqning shakllanishi va mavjud bo'lishi aynan ushbu tovushlar vositasida amalga oshadi. Tilni tasavvuriy tarzda binoga qiyos qilsak, nutq tovushlari uning g'ishtlari vazifasini bajaradi. Ya'ni, har qanday mustahkam tuzilma singari, til ham o'zining fonetik asoslariga tayanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslikda fonetik tadqiqotlar asosida fonosemantika, fonostilistika va fonopragmatika kabi yangi yo'nalishlar jadal rivojlanmoqda. Baholovchi mazmunni fonetik sath vositalari orqali tahlil qilishda ushbu fan sohalarining nazariy yondashuvlariga murojaat qilish o'rinli sanaladi. Fonetik birliklarning ma'no ifodalashdagi ishtiroki, ularning konnotativ yuklamasi va emotsional ta'siri tilshunoslikning yangi paradigmalarini shakllantirmoqda.

Fonosemantikada tovush vositalari orqali so'z ma'nosi, shuningdek, tovush-so'z-ma'no o'rtasidagi paradigmatic munosabatlar tahlil qilinadi. Ayrim holatlarda tovushlarning fonetik xususiyatlari orqali so'zga baholovchi ma'no yuklanadi, bu esa fonosemantik tahlilning lingvokulturologik ahamiyatini oshiradi.

Fonostilistika esa fonetik birliklarning stilistik funksiyalari, ularning turli uslubiy kontekstlarda qo'llanish imkoniyatlari va nutqdagi emotsional yuklamali ta'sir kuchini o'rganadi. Masalan, tovushlar takrori, cho'ziqlik-qisqalik, assimilyatsiya kabi fonetik hodisalar yordamida so'z ma'nosi kengayadi, ohangdorlik kuchayadi, obrazlilik hosil bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida bu boradagi izlanishlar F. Xalimova, A. Haydarov, M. Norova va O. Tursunova kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning tadqiqotlari fonetik sath vositalarining stilistik,

semantik va pragmatik imkoniyatlarini yoritishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha izlanishlar tilning emotsional-estetik qirralarini chuqurroq anglash imkonini beradi [17; 54-b., 6; 158-b., 12; 50-b., 16; 116-b.].

Fonetik sathning segment va suprasegment vositalari orqali pragmatik ma'no ifodalanishi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi sohalaridan biri bo'lgan fonopragmatika tarkibida o'rganilmoqda [13; 209–222-b., 14; 221–227-b., 2; 83–104-b., 4; 26-b.], hamda ingliz va o'zbek tillarida bahoning fonetik vositalar orqali ifodalanishining chog'ishtirma tahlili ham bu sohadagi tadqiqotlardan biridir.

Bir qator olimlar, jumladan, A. P. Juravlev, S. V. Voronin, N. A. Lyubimova, I. B. Golub, Yu. M. Lotman, I. V. Arnold, Ye. A. Titova, M. S. Mayron, D. A. Kristal, A. Gruttenden; o'zbek tilshunosligi olimlaridan: A. Abduazizov, A. Haydarov, G. Yaxshiyeva, Z. M. Kabilova, M. Mirtojiyev, K. Saparova kabilar fonostilistik, fonosemantik va fonografik vositalarning badiiy kontekstda ishlatilish xususiyatlarini tadqiq etganlar [21; 160-b., 22; 160-b., 20; 119-b., 25; 214-b., 21; 670-b., 24; 846-b., 19; 384-b., 27; 189-b., 11; 623–630-b., 1; 170-b., 6; 158-b., 18; 132-b., 9; 124-b., 10; 24-b., 26; 395-b.].

Natijalar va muhokama. Nutq tarkibida bahoviy ma'no ko'pincha segment fonetik vositalar, ya'ni unli va undosh tovushlar orqali ifodalanadi. Aksariyat hollarda emotsional yuklama aynan ushbu tovushlar yordamida nutqqa beriladi. Unli tovushlar ohang, intonatsiya va ohangdorlik vositasi sifatida baho ifodalashda muhim rol o'ynaganidek, undosh tovushlar ham stilistik kuchaytirish, emotsional ta'sir va bahoviy ekspressivlik vositasi sifatida faol qo'llaniladi.

Bu borada H. Jamolxonovning fikricha, so'z ma'nosini kuchaytirish, unga stilistik bo'yoq berish ehtiyoji tug'ilganda, geminatsiya, ya'ni bir xil undoshlarning ketma-ket takrorlanishi hodisasi yuzaga keladi. Bunday holatlarda urg'u odatdagidan farqli ravishda so'zning oldingi bo'g'inlariga siljiydi, bu esa bahoviy ohangni kuchaytiradi. Masalan, "mazza qilmoq" shaklida aytilgan so'z odatiy bo'lsa, "mázza qilmoq" tarzida talaffuz qilinganda unga baholovchi, zavqli-emotsional ohang yuklanadi. Shuningdek, "yashamagur" o'rniga "ya'shshamagur" kabi formalar so'kish, tanbeh yoki kinoyaviy bahoni kuchaytiradi [8; 167-b.]. Bunday fonetik hodisalar tildagi fonostilistik vositalar sirasiga kiradi va bahoviy ma'noni tovush darajasida ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi misollarda ingliz va o'zbek tillaridagi ijobiy baho munosabatini undoshlar orqali ifodalanishini ko'rib chiqamiz:

«**Mmm**,» said Harry, **wishing he could say something a bit more interesting.** (J.K. Rouling. Harry Potter and the Sorcerer Stone)

«**Hmmm**,» said Mr. Ollivander, giving Hagrid a piercing look. «Well, now – Mr. Potter. Let me see». He pulled a long tape measure with silver markings out of his pocket. «Which is your wand arm?» (J.K. Rouling. Harry Potter and the Sorcerer Stone)

The minutes snailed by. Harry let Lockhart's voice wash over him, occasionally saying, «**Mmm**» and "Right" and "Yeah". Now and then he caught a phrase like, "Fame's a fickle friend, Harry," or "Celebrity is as celebrity does, remember that". (J.K. Rowlin. Harry Potter and the Chamber of Secrets)

Nearly everyone laughed. Even Neville grinned apologetically. Professor Lupin, however, looked thoughtful. «Professor Snape... **hmmm**... Neville, I believe you live with your grandmother?» (J.K. Rowlin. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

Yuqoridagi misollardan 4ta holatda [m] tovushi quvonchdan hayratlanish, rozilik kabi ijobiy bahoni ko'rsatmoqda.

– Bo'lmaydi. Anhor bo'yini gaplash. Tuzukroq qorilarni aytir.

– Qorilarning **xo'rruzini** toptiraman. Yo Sobitxoningni Qo'qondan oldirib kelaymi? (T.Malik. Shaytanat, 4-kitob)

– **Urre!** Katta adam jevachka obkeldila! (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi)

– Yo'q, Dudin **lennngradlik** shoir, – dedi Meliyev. ... – Dudin katta shoir, Klara Xodjayevna, – dedi Meliyev. (T.Murod. Otamdan qolgan dalalar)

Ko'rib chiqilgan misollarda 3 ta holatda so'zlar tarkibidagi undoshlarni qavatlash orqali ijobiy baho yuzaga chiqmoqda.

Quyidagi misollarda ingliz va o'zbek tillaridagi salbiy baho munosabatini undoshlar orqali ifodalanishini ko'rib chiqamiz:

Mr. Weasley's eyes jerked open. He stared guiltily at his wife. «**C-cars**, Molly, dear?» (J.K. Rowlin. Harry Potter and the Chamber of Secrets)

«**S-s-sorry**», **sobbed** Hagrid, taking out a large, spotted handkerchief and burying his face in it. «But I **c-c-can't** stand it – Lily an' James dead – an' poor little Harry off ter live with Muggles». (J.K. Rowlin. Harry Potter and the Half-Blood Prince)

«You **c-can't** – Dad told you you're not to do m-magic – he said he'll chuck you out of the house – and you haven't got anywhere else to go – you haven't got any friends to take you». (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

Yuqoridagi misollarda [s], [k] undoshlarini qavatlash, ohang va bahoni ko'rsatuvchi jerk, stare guiltily, sob, poor leksemalari orqali nutqda baho o'z ifodasini topgan.

Tahlillar davomida undosh tovushlar qavatlanishi orqali baho ifodalanishi jarangli undoshlar orqali ko'proq ifodalanishi mumkinligi kuzatildi: «His **d-diary**» Ginny sobbed. «I've **b-been** writing in it, and he's been w-writing back all year». (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Half-Blood Prince)

Trying hard to bear all this in mind, Harry took a pinch of Floo powder and walked to the edge of the fire. He took a deep breath, scattered the powder into the flames, and stepped forward; the fire felt like a warm breeze; he opened his mouth and immediately swallowed a lot of hot ash.

«**D-Dia-gon** Alley,» he coughed.

«**D-did** I? I don't recall»

«His **d-diary**» Ginny sobbed. «I've **b-been** writing in it, and he's been w-writing back all year»

«I **d-didn't** know,» sobbed Ginny. «I found it inside one of the books Mum got me. I **th-thought** someone had just left it in there and forgotten about it». (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

«**Shhh!**» hissed Professor McGonagall, «you'll wake the Muggles!»

– Lily an' James dead – an' poor little Harry off ter live with Muggles.

«I... don't... want... him... t-t-to come!» Dudley yelled between huge, pretend sobs. «He always sp-spoils everything!» He **shot Harry a nasty grin through the gap in his mother's arms**. (J.K.Rowling. Harry Potter and the Sorcerer's Stone)

[m] tovushini qavatlash orqali salbiy baho hosil qilingan:

Professor Lupin lowered his bottle thoughtfully. «**Hmmm...** well, the only people who really know are in no condition to tell us. You see, the Dementor lowers its hood only to use its last and worst weapon». (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban)

Hmm. . . What do you think, Harry?» said Luna, looking thoughtful. (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Deathly Hallows)

«**Hmmm,**» said Mrs. Weasley. «Maybe I got the impression she was planning to spend Christmas alone, actually». (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Half-Blood Prince)

«**Mmm... you're not** exactly **straining** yourself, though, are you?» said Hermione, looking at him over the top of her Potions notes. (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Goblet of Fire)

Quyidagi misolda esa fonetik sath vositalari, leksemalar va matn mazmunidan salbiy baho anglash mumkin: ... And behind it, a portrait – and on either side, north and south, and at the rear, benches and benches in rows – each tier higher than the other, and all crowded with people, the space behind them packed with standing bodies, and all apparently, as he entered, leaning and craning and examining him with sharp keen eyes, while there went about a conversational buzz or brrh. He could hear a general sssss–pppp–as he approached and passed through a gate to an open space beyond it, wherein, as he could see, were Belknap and Jephson at a table, and between them a vacant chair for him. (Th. Dreiser. *An American Tragedy*)

Ingliz tilida biz ko'rib chiqqan materiallar asosidagi tahlillar xulosasiga ko'ra, 20 ta holatda undoshlar salbiy baho yaratilishida keng ishtirok etgan. Shulardan [b] tovushi 2 ta, [d] tovushi 5 ta, [k] tovushi 2 ta, [m] tovushi 4 ta, [p] tovushi 1 ta, [r] tovushi 1 ta, [s] tovushi 2 ta, [z] tovushi 1 ta, [θ] tovushi 1 ta, [ʃ] tovushi 1 ta o'rinda salbiy baho ifodalanishida qatnashgan.

– Bularning ichida nima qilib yuribsiz, tog'a? – dedi. Uning “bular” deb bepisand gapirgani Yigitaliga malol keldi. Shu sababli “bular” so'ziga atayin urg'u berib, javob qaytardi:

– Bular – mening qiyomatli qo'shnilarim. Issig'im ham, sovug'im ham shular bilan edi.

– Qo'shnilaridan ham toz-za buyurgan ekan-da, a? – dedi haydovchi yana ko'zgu orqali qarab.

– Nega unday deysiz? Xudoga shukr, qo'shnilarim – tillo odamlar. (T. Malik. *Shaytanat*, 2-kitob)

Ushbu dialogda gap urg'usi orqali subyektiv baho hosil qilinmoqda va o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun “bular” so'ziga atayin urg'u berilib, birikmalar izoh sifatida keltirilmoqda. “– Qo'shnilaridan ham toz-za buyurgan ekan-da, a?” – dedi haydovchi yana ko'zgu orqali qarab parchasida esa undosh [z] tovushini ikkilantirish, undov so'zlar va so'roq ohangi orqali salbiy ma'no ifodalangan. Oxirgi gapda biz jumla urg'usi orqali subyektiv baho – ijobiy ma'no aks etganini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi misollarda esa o'zbek tilida his-hayajonni bildiruvchi undov so'zlardagi undoshlarni qavatlash orqali baho ifodalangan:

– Obbo! Oyim uxlamagan ekan-ku! (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)
– Uf-f, ena... bo‘lar endi... (T. Murod. *Otamdan qolgan dalalar*)
– Uf-f, bir piyola choy ber-ye, baraka topkur-ye! – deydi. (T. Murod. *Otamdan qolgan dalalar*)
Gapdagi bo‘g‘ilish ma‘nosini kuchaytirish uchun sof emotsional so‘z tarkibida “f” undoshi takror qo‘llangan.

– Uf-f, senlardan o‘lsam qutulamanmi-a, o‘lsam qutulamanmi!... (T. Murod. *Otamdan qolgan dalalar*)

– Uff! Isib ketdim! (O‘. Hoshimov. *Dunyoning ishlari*)
– Uf-f-f... ko‘rib bo‘ldingizmi? – dedi. (T. Murod. *Otamdan qolgan dalalar*)
– Vay-y, nodonlar! Vay-y, pul topib, aql topmaganlar! (A. A‘zam. *Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar*)

Oqil ikki qo‘lini ham tizzasiga urib: “Vay-y!” deb yubordi. (A. A‘zam. *Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar*)

– Ie? Voy? Vo-oy! – Bahodir aka turgan joyida taxta bo‘lib qoldi. (O‘. Hoshimov. *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*)

– Voy-y! – Sano–Sanobarning tovushida qo‘rqinch bor edi. – Obering! Obering! (A. A‘zam. *Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar*)

– O‘h-ho‘, vaqt ketib qopti-ku, ma‘lim! – dedi bosh chayqab. (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)

– Uh-h, o‘zi bugun omadim chopmagan ekan. (A. A‘zam. *Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar*)

– O‘h-ho‘! Ja osmondasiz-ku, yigit!.. (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)

– O‘h-ho‘! Sal pastga tushing, yigit!.. (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)

– Ohh! Ana, qon oqyapti... (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)

– Yeding, ilon! Ohh! (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)

– E-ha! Bo‘ldi! Anavi ilonvachcha urdi. Tosh bilan urdi. Mana, mana shu yerimga! Ohh! Ana, qon oqyapti... Meni urdimi? Meni-ya?! (O‘. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*)

O‘zbek tilida undoshlar orqali salbiy baho munosabatini aniqlash uchun izlanishlarda yig‘ilgan parchalar umumiy soni 23 tani tashkil etdi. Shundan [b], [m], [s], [q] undosh tovushlari 1 ta holatda, [r] tovushi 2 ta holatda, [y] tovushi 4 ta holatda, [f] tovushi 5 ta holatda, [h] tovushi esa 8 ta holatda salbiy baho yaratish uchun xizmat qilgan.

O. Tursunova ta‘kidlaganidek, «nasriy asarlar fonopoetikasida nutq tovushlarini cho‘zib talaffuz qilish, birdan ortiq yozish, fonetik jarayondagi turli hodisalar so‘zlovchining nutq vaziyatiga, voqelikka turli munosabatini bildirish, quvonch, g‘azab, achchiqlanish, afsus, hayrat, taajjub, kinoya, piching, kesatiq, rozilik, norozilik, tilak-istak va hokazolarni ifodalashda fonetik birliklardan foydalaniladi» [15, 129-b.; 16, 116-b.].

Xulosa. Tahlillar natijasiga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillarida nutq tarkibida ijobiy va salbiy baho ifodalanishida undosh tovushlar ham ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Chog‘ishtirilayotgan tillardagi nasriy asarlardan olingan 46 ta parchada undoshlarni qavatlash usuli bilan baho ifodalanishi kuzatildi. Shundan ingliz va o‘zbek tillarida 15% holatda ijobiy baho, 85% holatda esa salbiy baho undoshlar orqali amalga oshgan. Ma‘lumki, fonetik sath vositalaridagi mavhumlik baholash jarayonida ham aks etadi va ulardagi ko‘p ma‘nolilik, variantlarga egalik xususiyatlari so‘zlovchiga nutq vaziyatiga qarab fonetik vositalardan ijobiy yoki salbiy baholash mobaynida foydalanish imkonini beradi. Demak, so‘zlovchi nutqda unli yoki undosh tovushlardan ijobiy yoki salbiy baholash jarayonida ham foydalanishi mumkin va bu unga muloqot jarayonida katta imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduazizov A. A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2010. – 170 b.
2. Bari Edipuglia, Hill L. B. The Future of Cross-Culture Communication: Perspectives from 20 Years of the IAICS // Intercultural Communication Research. – 2009. – P. 83–108.
3. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.
4. Fareed Hameed Al-Hindawi. Phonopragmatic Manifestations in Iraqi Hussein Preachers’ Discourse: A Qualitative Auto-Segmental Metrical Analysis // Advances in Language and Literary Studies. – 2020.
5. Cruttenden A. Intonation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – 214 p.
6. Haydarov A. A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – 158 b.
7. Haydarov A. A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – 158 b.
8. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009. – 167 b.

9. Kabilova Z. M. O'zbek tilining fonosemantik vositalari: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – 124 b.
10. Mirtojiev M. Tovushlardagi ma'no. – Toshkent: O'zbekiston, 1982. – 24 b.
11. Myron M. S. A Cross-Linguistic Investigation of Phonetic Symbolism // The Journal of Abnormal and Social Psychology. – 1962. – P. 623–630.
12. Norova M. F. Ingliz va o'zbek tillarida fonostilistik va grafostilistik vositalarning konnotativ ma'nolari: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Buxoro, 2021. – 50 b.
13. Romero Trillo J. Pragmatic Punting and Prosody: Evidence from Corpora // The Functional Perspective on Language and Discourse. – 2014. – P. 209–222.
14. Sperti S. Phonopragmatic Dimensions of ELF in Specialized Immigration Contexts // In: S. Kermas, T. Christiansen. The Popularization of Specialized Knowledge Across Communities and Cultures. – 2017. – P. 221–227.
15. Tursunova O. O'zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari: filol. fan. nomz. ... diss. – 2019. – 129 b.
16. Tursunova O. O'zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari: filol. fan. nomz. ... diss. – 2019. – B. 116.
17. Xalimova F. R. Poetik matnning lingvofonetik xususiyatlari va tarjimaning pragmatik muammolari: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 54 b.
18. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1996. – 132 b.
19. Арнольд И. В. Стилистика. Учебник для вузов. – 4-е изд., испр. и доп. – Москва: Флинта; Наука, 2002. – 384 с.
20. Воронин С. В. Фоносемантические идеи в зарубежном языкознании. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. – 199 с.
21. Голуб И. Б. Стилистика русского языка. – Москва: Титул, 2002. – 670 с.
22. Журавлев А. П. Фонетическое значение. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1974. – 160 с.
23. Журавлев А. П. Звук и смысл. – Москва: Просвещение, 1991. – 160 с.
24. Лотман Ю. М. О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста: Статьи и исследования. – СПб.: Искусство, 1996. – 846 с.
25. Любимова Н. А., Пинежанинова Н. П., Сомова Е. Г. Звуковая метафора в поэтическом тексте. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 1996. – 214 с.
26. Сапарова К. О. Сопоставительное типологическое исследование фоностилистики русского и узбекского языков (на материале фоновариантов слов): дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 2010. – 395 с.
27. Титова Е. А. Прагматический аспект передачи звукоизобразительных средств при переводе поэтических текстов (на материале английского и русского языков). – Челябинск, 2006. – 189 с.